



## 2020- yil yanvar-iyun oylari uchun Toshkent shahrida qurilish ishlari


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida jami **8 596,6** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **101,2 %** ni tashkil etdi.



### 2020- yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi % da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



### Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, birlikda



2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 7,1 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,2 mingtaga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **115,8 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **49,1 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **126,0 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **6,8 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringning **127,9 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **44,1 %**) o'sishidir.



## TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI




### Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.07.2019-yil	01.07.2020-yil	
<b>Toshkent sh.</b>	<b>5905</b>	<b>7177</b>	<b>121,5</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	111	159	143,2
<b>Mirzo Ulug'bek</b>	795	913	114,8
<b>Mirobod</b>	503	611	121,5
<b>Olmazor</b>	525	600	114,3
<b>Sergeli</b>	377	497	131,8
<b>Uchtepa</b>	436	547	125,5
<b>Chilonzor</b>	781	941	120,5
<b>Shayxontohur</b>	450	555	123,3
<b>Yunusobod</b>	791	946	119,6
<b>Yakkasaroy</b>	632	761	120,4
<b>Yashnobod</b>	504	647	128,4



**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalarining tumanlar kesimida ulushi % da  
01.07.2020-yil holatiga ko‘ra**




***Ma‘lumot uchun:*** shaharda soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan qurilish korxonalari Yunusobod tuman (13,2 %), Chilonzor tuman (13,1 %) va Mirzo Ulug’bek (12,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **2 219,8** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **115,2 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **3,0 %** punktga ko'payib, **25,8 %** ni tashkil etdi.




### **Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi, % da**



***Ma'lumot uchun:*** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mirobod tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **17,2 %** i yoki 2019-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan **80,0 %**), Olmazor (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **15,2 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **112,2 %**), va Yunusobod tumanlari (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **14,9 %** i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **91,5 %**) ga to'g'ri keldi.



**Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona  
va mikrofirmalarning ulushi, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020-yil yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **65,6 %**i to‘g‘ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyun oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **2,5 %** punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **105,6 %** ni tashkil etgan holda **5 638,6** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

*Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **8,6 %** ni tashkil etdi o’tgan yilning mos davriga nisbatan **5,5 %** punktga kamaygan yoki **738,1** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **58,5 %** ni tashkil etdi.*



## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi


ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **244,5** mlrd. so'm yoki 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **61,0 %** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **8 352,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **103,2 %** ni tashkil etdi. Ularning shahardagi tutgan ulushi mos ravishda **2,8 %** va **97,2 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



**Davlat mulki**



**Nodavlat mulk**

**2020- yil yanvar-iyun**

**Toshkent shahrida qurilish ishlari**




Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2020- yil yanvar-iyun




77,2 %

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlaringning **77,2 %** i yoki **6 640,3** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



25,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 675,6** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **25,2 %** ni tashkil etdi.



67,8 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **4 500,5** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,8 %** ni tashkil etdi.



7,0 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **464,2** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **7,0 %** ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-iyun oylarida**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)</b>	<b>O‘sish sur’ati, % da</b>	<b>Jamiga nisbatan, % da</b>
<b>Toshkent sh.</b>	<b>8 596,6</b>	<b>101,2</b>	<b>100,0</b>
<i>tumanlar</i>			
<b>Bektemir</b>	<b>413,3</b>	<b>100,6</b>	<b>4,7</b>
<b>Mirzo Ulug‘bek</b>	<b>873,2</b>	<b>101,0</b>	<b>10,2</b>
<b>Mirobod</b>	<b>882,0</b>	<b>101,2</b>	<b>10,3</b>
<b>Olmazor</b>	<b>913,1</b>	<b>102,3</b>	<b>10,6</b>
<b>Sergeli</b>	<b>725,5</b>	<b>100,7</b>	<b>8,4</b>
<b>Uchtepa</b>	<b>502,9</b>	<b>100,7</b>	<b>5,9</b>
<b>Chilonzor</b>	<b>952,5</b>	<b>100,4</b>	<b>11,1</b>
<b>Shayxontohur</b>	<b>749,9</b>	<b>101,5</b>	<b>8,7</b>
<b>Yunusobod</b>	<b>971,2</b>	<b>102,3</b>	<b>11,3</b>
<b>Yakkasaroy</b>	<b>883,0</b>	<b>100,9</b>	<b>10,3</b>
<b>Yashnobod</b>	<b>730,0</b>	<b>101,1</b>	<b>8,5</b>

\*Tumanlar bo'yicha taqsimlangan hajjni qo'shgan holda



## Shaharda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2019- yil yanvar-iyun

18,6




Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

20,6



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

60,8



Bino va inshoatlarni  
qurish

22,2



Ixtisoslashtirilgan  
qurilish ishlari

17,9



Fuqarolik obyektlarini  
qurish

59,9



Bino va inshoatlarni  
qurish

**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar-joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Bino va inshoatlar qurilishi

ulushi % da

Bino va inshoatlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **18,6 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,3 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **6,5 %** punktga ko'payib, **67,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyun oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **8,8 %** punktga kamayib, **14,3 %** ni tashkil etdi.






## Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **63,9 %** ni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **10,0 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **36,1 %** (**10,0 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari


ulushi % da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,1 %** punktga ko'paydi va **14,5 %** ni tashkil etdi. Qolgan **85,5 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **5,1 %** punktga kamaydi.





## Tumanlar kesimida qurilish ishlari jamiga nisbatan % da.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Mirobod (tumandagi qurilish hajmining 43,2 % ni tashkil etdi) va Olmazor (mos ravishda 36,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda.



Tumanlar kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-iyun oylarida

Eng yuqori hajm  
(mlrd. so'm)

Yunusobod  
971,1

1

2

Chilonzor  
952,5

Olmazor  
913,1

3



Kichik hajm  
(mlrd. so'm)

Sergeli  
725,5

1

2

Uchtepa  
502,9

Bektemir  
413,3

3





**Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Nashr uchun mas'ul:**

**Sh.Samiyev**

**Aloqa telefoni:**

**(71) 202-88-19**